

**INGLIZ TILIDA SPORT SOHASIGA OID FRAZEOLOGIK
BIRLIKLARDA LEKSIK-SEMANTIK MUNOSABATLAR VA O‘ZBEK
TILIGA TARJIMA QILISH**

Iroda Xolboyeva Shuxrat qizi

Termiz iqtisodiyot va servis

universiteti magistranti

[*irodaxonxolboyeva@gmail.com*](mailto:irodaxonxolboyeva@gmail.com)

Annotatsiya: ushbu tezisdagi ingliz tilidagi sport sohasiga oid frazeologik birliklar o‘rtasidagi leksik-semantik munosabatlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: sport, frazeologik birliklar, leksik-semantik munosabatlar, sinonim, antonim.

Ma’lumki, so‘zlar ma’no munosabatiga ko‘ra sinonim, antonim, uyadosh, partonim, graduonimik munosabatidagi so‘zlarga, shakl munosabatiga ko‘ra esa omonim va paronim so‘zlarga bo‘linadi. Bu tilshunoslikda leksemalar o‘rtasidagi leksik-semantik munosabatlar termini ostida birlashtiriladi. Shuningdek leksemalar o‘z anglatgan ma’nosi asosida o‘zaro sintagmatik va paradigmatic va iyerarxik munosabatda bo‘ladi. Ba’zi so‘zlar o‘z anglatgan semalari asosida o‘zaro bir-biriga yaqin bo‘lsa, ba’zilari bir-birini inkor qiladi. Ba’zi bir so‘zlarning ma’nosi bog‘lanmasa-da, tashqi tomoni (aytilishi va yozilishi) bir xil bo‘lgan so‘zlar ham mavjud bo‘lib, biri boshqasining borligini eslatib ham turadi. Shunga ko‘ra, sinonim, antonim, omonim va paronimlar ajratiladi.

Tilshunoslikda so‘zlarning ma’nolaridagi qarama-qarshilik antonimlarni aniqlash uchun asosiy mezon hisoblanadi. Til birliklarining o‘zaro ma’nodoshligi sinonimlar bo‘lib, ular fikrni aniq va ravshan, rang-barang ifoda qilishga xizmat qilsa, antonimlar esa semantik ziddlikni ifoda etishga yordam beradi.

Bilish jarayonida narsa va hodisa, harakat-holat, belgi va xususiyatni bir-biriga zidlash, ularning o‘zaro o‘xshash va farqli tomonlarini qiyoslab aniqlash katta ahamiyatga ega. Shu ma’noda bilish faoliyatimizning muayyan qismi zidlanishga, ya’ni antonimik jarayonga asoslangan bo‘lib, biror narsani aytishimiz bilan uning ziddi ham xayolimizga keladi¹.

Tilshunos olim Abduzohur Abduazizovning ta’kidlashicha, antonimlar bir-birini inkor etuvchi ma’nodagi so‘zlar o‘rtasida vujudga keladi. Antonimlar ham o‘zining sinonimlariga ega bo‘lishi mumkin. Masalan: kalta (pakana) – novcha (uzun),

¹ Aripova Z.N. O‘zbek musiqashunoslik terminologiyasi: Filol. fan. nomz... diss. avtoref. – Toshkent, 1998. – 26 b.

mazali (shirin) – mazasiz (bemaza) kabi. Demak, antonimlar sinonimlar bilan ham bogʻlana oladi. Antonimlar zid maʼnodagi soʻzlarni yoxud iboralarni qiyoslash natijasida kelib chiqqan boʻlib, ogʻzaki va yozma nutqda koʻp qoʻllaniladi².

A.V.Kuninning taʼkidlashicha, antonimlarning semantikasidagi oʻziga xos xususiyatlaridan biri ularning maʼnolaridagi zidlik hamda nisbiy qarama-qarshilik boʻlsa, ikkinchisi esa antonimik juftliklarning biri qaysi soʻz turkumiga mansub boʻlsa, ikkinchisi ham aynan oʻsha soʻz turkumiga taalluqli boʻlishidir³.

Ingliz tili sport terminologiyasida antonim FBlardan tashqari sinonim FBlar ham mavjud. Tilshunoslikda sinonimlar turli adabiyotlarda turlicha talqin qilinib, har xil turlarga boʻlingan. Terminologiya tarixi bilan maxsus shugʻullangan L.Kutina sinonimiya haqida oʻz fikrini shunday bayon etgan: Terminologiya sohasida keng tarqalgan sinonimiya hodisasi terminologik tizimlarning shakllanishi uchun xarakterlidir⁴.

Sport sohasida termin sifatida xoslangan koʻchma maʼnoli leksik birliklar tarkibida sinonimiya hodisasi ham uchraydi. Ular ham antonimiya kabi son jihatdan juda kam boʻlishiga qaramasdan nutqiy birliklar tarkibida mavjuddir.

Misol uchun, *Wonder kid* koʻchma maʼnoli leksik birlik termin sifatida xoslanganda yosh sportchilarga nisbatan *juda iqtidorli bola* maʼnosida qoʻllaniladi. Bu soʻz shu maʼnoda oʻzbek tiliga *vunderkind* koʻrinishida xoslanyapti.

A.V.Kuninning⁵ taʼkidlashicha, frazeologik sinonimlarning sinonimik uyalar, sinonimik qatorlar, sinonimik guruhlar tarkibiga kirishi frazeologik tizimda namoyon boʻladigan, muntazam sodir boʻladigan tabiiy jarayondir.

Sinonimik uyalar, sinonimik qatorlar va sinonimik guruhlarining sport sohasida oʻziga xos tutgan oʻrni va xususiyatlarini quyidagicha izohlash maqsadga muvofiq deb bilamiz.

1. Sinonimik uyalar tarkibiga kiruvchi FBlarining tarkibiy tuzilishidagi komponentlarida maʼlum darajada oʻxshash va tafovutli jihatlar kuzatilsa-da, semantik jihatdan bir xil mazmuni ifoda etadi. Masalan: *Be out of count – take the count – magʻlubiyatga uchramoq, yengilmoq, oʻyindan chiqib ketmoq.*

2. Sinonimik qator tarkibiga kiruvchi sport sinonim frazeologik birliklarida esa semantik jihatdan toʻliq maʼnodoshlik mavjud boʻlib, umumiy leksik komponentlari bir-biridan butkul ajralib turadi.

² Abdudzizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent, 2010.– 73 b.

³ Kunin A.V. Kurs frazeologii sovremennogo angliyskogo yazyka. Izdaniye vtoroye. – M., 1996. – 43 s.

⁴ Kutina L. Formirovaniye yazyka russkoy nauki. – M., 1974. – 278 s.

⁵ Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. Издание второе. – М., 1996. – 43 с.

Masalan: *Chuck up the sponge – throw in the towel – taslim bo‘lmoq, yengilganini tan olmoq, o‘yinni to‘xtatmoq.*

3. Sinonimik guruhlar tarkibiga kiruvchi aksar sport frazeologik sinonimlarning strukturaviy tuzilishida aniqlik artikli the o‘rtada ishtirok etishi bilan o‘ziga xos xarakterga ega bo‘lib qolgan komponentlari bir-biriga mutlaqo o‘xshamaydi. Masalan: *Make the running – set the pace – oldinda ketmoq, peshqadamlik qilmoq.* Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ingliz tilidagi sport terminologiyasida, asosan, umumleksik birliklarda uchraydigan leksik-semantik munosabatlarning deyarli barchasi uchraydi. Bunga asosiy sabab sifatida bu terminlarning umumleksik birliklardan maxsuslashtirib olinganligi hisoblanadi. Terminlarni tilshunosliking har bir aspektida tahlil qilish esa ilmiy zarurat hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Арипова З.Н. Ўзбек мушқашунослик терминологияси: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – 26 б.
2. Абдуазизов А. Тилшунослик назариясига кириш. – Тошкент, 2010.– 73 б.
3. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. Издание второе. – М., 1996. – 43 с.
4. Кутина Л. Формирование языка русской науки. – М., 1974. – 278 с.
5. Ziyonet.uz